Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

GERMANIYA VA O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI TURIZM, MIGRATSIYA ALOQALARI HAMDA TURIZMNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Ashuraliyev Firdavs Umidjon o'g'li
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
e-mail; firdavsashuraliyev865@gmail.com [882050809]

Ilmiy rahbari: **Yarmuhammedova Iroda Nosir qizi**
s.f.f.d. (PhD)., O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti
Siyosiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
(+998974001440, Irodaxon1440@gmail.com)
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20613904

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi turizm hamda migratsiya aloqalarining rivojlanish tendensiyalari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikki davlat o'rtasidagi sayyohlik oqimlari, mehnat va ta'lim migratsiyasining o'ziga xos jihatlari hamda mazkur jarayonlarning iqtisodiyotga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, turizm sohasining yalpi ichki mahsulot, bandlik darajasi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va madaniy almashinuvni kengaytirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ikki davlat o'rtasidagi turizm va migratsiya munosabatlarini yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

ABSTRACT

This article examines the current state, development trends, and future prospects of tourism and migration relations between Germany and Uzbekistan. The study highlights the role of tourism and migration processes in strengthening economic, cultural, and social cooperation between the two countries. Furthermore, the impact of the tourism sector on the national economy is analyzed, including its contribution to GDP growth, job creation, expansion of service exports, and regional development. Based on scientific sources and analytical approaches, the paper evaluates the significance of tourism as a driver of sustainable economic growth. The findings may contribute to the development of practical recommendations aimed at enhancing tourism exchange and improving migration cooperation between Germany and Uzbekistan.

АННОТАТСИЯ

В данной статье рассматриваются современное состояние, тенденции развития и перспективы туристических и миграционных связей между Германией и Узбекистаном. Анализируется роль туризма и миграции в укреплении экономического, культурного и социального сотрудничества между двумя государствами. Особое внимание уделяется влиянию туристической отрасли на национальную экономику, включая рост валового внутреннего продукта, создание новых рабочих мест, расширение экспорта услуг и развитие регионов. На

основе научных источников оценивается значение туризма как важного фактора устойчивого экономического роста. Результаты исследования могут быть использованы для разработки практических рекомендаций по расширению туристического обмена и совершенствованию миграционного сотрудничества между Германией и Узбекистаном.

Kalit so'zlar; turizm, migratsiya, xalqaro hamkorlik, Germaniya, O'zbekiston, iqtisodiy rivojlanish, turistik oqimlar, mehnat migratsiyasi, xizmatlar sektori, investitsiyalar.

KIRISH

Globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasidagi turizm va migratsiya aloqalari iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar so'nggi yillarda turli sohalarda, jumladan turizm va migratsiya yo'nalishlarida izchil rivojlanib bormoqda. Germaniya Yevropaning turli sohada eng rivojlangan davlatlaridan biri bo'lib, xalqaro turizm va migratsiya oqimlarida muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston esa boy tarixiy-madaniy merosi, qulay geografik joylashuvi va turizm salohiyati bilan xorijiy sayyohlar, jumladan germaniyalik turistlar uchun jozibador yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi turistik almashinuvning kengayishi, transport va logistika imkoniyatlarining yaxshilanishi hamda viza tartib-taomillarining soddalashtirilishi turizm rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, Germaniyada istiqomat qilayotgan o'zbekistonliklar sonining ortishi, talabalar va malakali mutaxassislarning migratsiyasi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Turizm iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida davlat byudjetiga tushumlarni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda katta ahamiyatga ega. Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi turizm hamda migratsiya aloqalarini o'rganish ushbu jarayonlarning iqtisodiyotga ta'sirini baholash, mavjud imkoniyatlar va istiqbollarni aniqlash nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. Germaniya bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida rasmiy munosabatlar 1992-yil 6- martdan boshlangan bo'lsa ham, ikki davlat o'rtasidagi aloqalar uzoq davrga borib taqaladi. XX asr boshlarida nemis mennotitlarining ko'chib kelgani va turli-tuman ijtimoiy hayotga yengilliklar, yangiliklarni olib kirgani tarixdan ma'lumdir. Birinchi o'zbek fotografiya va kinomatagrafiyasini asoschisi Xudoybergan Devonovning ustozi ham xorazmga ko'chib kelgan nemislardan edi.[1]

O'zbekiston va Germaniyaning yaxlit bir mustaqil davlat sifatida vujudga kelishi aynan yaqin davrda sodir bo'lgan bo'lsa,ikki tomonlama aloqalar ham shundan so'ng rivojlana boshladi. O'zbekistonning G'arbiy Yevropadagi birinchi elchixonasi 1993-yil Bonn shahrida ochildi. O'sha paytdanoq o'zaro aloqalar, delegatsiyalarning tashriflari yo'lga qo'yildi. Germaniya Federal iqtisodiy hamkorlik vazirining 1992-yil avgustdagi rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish uchun asos yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1993-yil aprelda Germaniyaga qilgan tashrifi o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarga muhim omil baxsh etgan burilish voqeasi bo'ldi. Ushbu tashrif yakunida imzolangan „Kapital qo'yilmalarni amalga oshirishga ko'maklashish va ularni o'zaro himoyalash to'g'risida" shartnoma, „Ilmiy tadqiqot va mutaxassislar jamg'armasini vujudga keltirish" hamda „Madaniy hamkorlik" to'g'risida bitimlar ikki davlat

[1] Arboblar.uz. Devonov Xudoybergan; Xudoybergan Devonov

o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini belgilab berdi.[2] O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 20-22 yanvar kunlari Germaniyaga bo'lib o'tgan birinchi rasmiy tashrifi, shuningdek, Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning o'sha yili 27-29 may kunlari O'zbekistonga javob tashrifi ikki tomonlama hamkorlik rivojiga kuchli turtki berdi. Ushbu oliy darajadagi uchrashuvlar davomida erishilgan kelishuvlar, shuningdek, global va mintaqaviy tuzilmalar doiralaridagi o'zaro hamkorlik masalalari 2021-yil 12-mart kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya kansleri Angela Merkelning onlayn sammitida ham muhokama qilindi.

2022-yil 31 oktabr – 2 noyabr kunlari Germaniya TIV rahbari Annalena Berbok tashrif bilan O'zbekistonga kelib, tashrif davomida uni Prezident Shavkat Mirziyoyev qabul qildi. Germaniya TIV rahbari, shuningdek, respublika vazirlik va idoralarida bir qator uchrashuvlar o'tkazib, Samarqand shahriga tashrif buyurdi.

Umuman olganda ikki davlatning ham YUNESCO butun jahon yodgorliklar ro’yxatiga kiritilgan tarixiy bino-obidalarining ko’pligi va tarixiy aloqalari, turizmning rivojlanishi va yangi bir taraqqiyot pog’onasiga ko’tarilishiga olib keldi.Ayni damda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq, Germaniya Federativ Respublikasi fuqarolari uchun 30 kungacha vizasiz kirish tartibi joriy etilgan bo’lib, O‘zbekiston fuqarolari bo’lsa Germaniyaga (Shenghen zonasi) borish uchun Toshkentdagi Germaniya elchixonasi yoki rasmiy viza markazlari orqali Shenghen vizasini rasmiylashtirishlari shart. O‘zbekistondan Germaniyaning ikki yirik shahri — Frankfurt-mayn va Myunxen aeroportlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslar yo‘lga qo‘yilgan bo’lib, sayyohlar oqimining ortishi natijasida haftalik parvozlar soni 6 martagacha ko‘paytirilgan bo‘lib, charter reyslar sonini ham oshirish ustida ishlanmoqda. Bularning barchasi turizm sohasining ikki hamkor bo’lgan davlatlar o’rtasida rivojlanayotganligi va iqtisodiyotiga ham foyda olib kelayotganidan dalolat beradi. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida 23 ming nafar Germaniya fuqarolari turistik maqsadlarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan.Qolaversa, dam olish – maqsadida 19 195 nafar, qarindoshlarni yo‘qlash uchun – 2 817 nafar, xizmat yuzasidan – 951 nafar, tijorat maqsadlari bilan – 50 nafar, ta’lim olish uchun – 28 nafar, davolanish uchun esa – 7 nafar Germaniya fuqarolari O‘zbekistonga kelishgan.[3] Hukumatlararo kelishuvlarga ko‘ra, yaqin yillarda Germaniyadan keladigan yillik vizual sayyohlar sonini 100 ming nafarga yetkazish strategik maqsad qilib belgilangan.

Germaniya turistik assotsiatsiyasi (DRV) va O‘zbekiston Turizm qo‘mitasi hamkorligida har yili o‘nlab nemis turoperatorlari uchun O‘zbekiston bo‘ylab info-turlar hamda "Destination Forum" biznes konferensiyalari tashkil etiladi. Germaniyaning yirik shaharlarida (Dyusseldorf, Berlin, Frankfurt) muntazam ravishda "O‘zbekistonni kashf eting!" mavzusida nemis turoperatorlari va OAV uchun taqdimotlar o‘tkaziladi. Nemis sayyohlari uchun eng asosiy ziyorat obyektlari Buyuk Ipak yo‘li bo‘yida joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlari bo’lib kelmoqda. So‘nggi yillarda nemis ekspertlari ko‘magida O‘zbekiston tog‘li hududlarida (Zomin, Bo‘stonliq) va Orolbo‘yi hududida ekoturizm hamda info-tuzilmalar rivojlantirish bo’yicha hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.[4]

Migratsiya jarayonlari ham ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Zamonaviy iqtisodiyotda migratsiya mehnat resurslarining xalqaro harakatini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, mehnat migratsiyasi, ta’lim migratsiyasi va malakali

[2] https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%93_Germaniya_munosabatlari (murojaat qilingan sana: 06.06.2026).
[3] https://www.uzbekistan.de/frontend/web/news/177?language=uz
[4] https://www.uzdaily.uz/uz/germaniyadan-ozbekistonga-turistlar-oqimi-489-foizga-oshdi/

mutaxassislar almashinuvi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Turizm va migratsiya oqimlarining ortishi transport, mehmonxona xo‘jaligi, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Migratsiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ikki tomonlama migratsiyaga oid muammolarni bartaraf etish yanada tartibga solingan,shaffof migratsiyani tashkil etish noqonuniy yo’llar bilan tashkil topishiga yo’l qo’ymaslik, qochoqlar sonini kamaytirish ustuvor masala deb belgilangan. Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi ushbu sa’y-harakatlar o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish bilan birga, noqonuniy migratsiyani bartaraf etishga qaratilgan. Ushbu kelishuvning asosiy maqsadlardan biri noqonuniy migrantlarning o‘z vatanlariga tezda qaytishiga ko‘maklashishdir. Bu chora viza rejimini soddalashtirish, shu orqali o‘zbekistonlik ishchilar va talabalarning Germaniya vizalarini olish jarayonini tezlashtirish vositasi sifatida ko‘rilmoqda. Germaniya hukumati O‘zbekiston fuqarolarini Germaniyada o‘qitish va ishga joylashtirish bo‘yicha qo‘shma loyihalar orqali mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlikni faollashtirish imkoniyatlarini ham ko‘rib chiqmoqda. Bundan tashqari, Germaniya hukumati O‘zbekistondan sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalaridagi malakali ishchilarni jalb qilishga qiziqish bildirmoqda.Tibbiyot sohasida tahsil olayotgan va tamomlagan yosh kadrlar ham Germaniyaga ishchi vizasi orqli ketib, ish va hayotini davom ettirib, tajriba orttirishmoqda.Qolaversa, O‘zbekistonning Berlindagi elchixonasi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi bir yilda 300 ga yaqin o‘zbekistonlik Germaniyada asosan dual ta’lim orqali ishga joylashtirilgan. Shu bois, 2022-yilda O‘zbekistonda dual ta’lim tizimi Germaniya tajribasi asosida rivojlantirilishi ma’lum qilingandi.[5] Kelgusida Germaniyada mehnat qilayotgan O‘zbekiston fuqarolari soni sezilarli darajada oshishi, ko’plab yoshlarning u yerda ta’lim olishi uchun yaratilayotgan qulayliklardan oqilona foydalanishi hamkorlik va aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

Mehnat migrantlari tomonidan o‘z vatanlariga yuboriladigan pul o‘tkazmalari milliy iqtisodiyot uchun muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Ushbu mablag‘lar aholi farovonligini oshirish, iste’mol talabini rag‘batlantirish va kichik biznesni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xorijda ishlagan yoki ta’lim olgan fuqarolar yangi bilim, texnologiya va boshqaruv tajribalarini o‘zlashtiradi. Ular vatanga qaytgach, ushbu tajribalarni mahalliy iqtisodiyot rivojiga yo‘naltirishi mumkin. Ko‘plab migrantlar orttirgan mablag‘larini biznes tashkil etish, uy-joy qurish yoki ishlab chiqarishga investitsiya qilish uchun sarflaydi. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratilishiga olib keladi.

Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko‘plab mamlakatlar uchun u eksport daromadlarining muhim manbai hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishiga hissa qo‘shadi. Turistlarning xarajatlari mehmonxona, restoran, transport, savdo va ko‘ngilochar xizmatlar orqali iqtisodiyotga kirib keladi. O‘zbekistonda tarixiy shaharlar — Samarqand, Buxoro va Xivaga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar mahalliy iqtisodiyotga sezilarli daromad keltirib, turizm sektori ko‘plab ish o‘rinlarini yaratadi. Mehmonxonalar, restoranlar, transport korxonalari, turistik agentliklar va hunarmandchilik markazlari minglab insonlarni ish bilan ta’minlaydi. Turizmning bir ish o‘rni yaratishi boshqa tarmoqlarda ham qo‘shimcha bandlikni yuzaga keltirib, bu iqtisodiyotda “multiplikativ ta’sir” deb ataladi. Xorijiy turistlar mamlakatga valyuta olib kirishi davlatning to‘lov balansini yaxshilaydi va milliy valyuta barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Turizmning rivojlanishi yo‘llar, aeroportlar, temir yo‘l tizimlari, mehmonxonalar va kommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyasiga sabab bo‘lib, ushbu infratuzilmadan nafaqat turistlar, balki mahalliy

[5] https://www.spot.uz/oz/2022/10/18/dual-education/

aholi ham foydalanadi. Turizm sohasida suvenir ishlab chiqarish, milliy hunarmandchilik, oilaviy mehmon uylari, restoranlar va transport xizmatlari kabi ko‘plab kichik biznes subyektlari faoliyat yuritishi hududning iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi. Turizm tarixiy obidalar va madaniy meros obyektlarini asrash uchun qo‘shimcha moliyaviy manbalarni yaratishi tufayli ko‘plab davlatlar turizmni iqtisodiy foyda bilan bir qatorda madaniy rivojlanish vositasi sifatida ham qo‘llab-quvvatlaydi. Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi turizm va migratsiya aloqalari ikki mamlakat iqtisodiy hamkorligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekiston fuqarolarining Germaniyada ta’lim olishi va mehnat faoliyati inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qilib, ikki davlat o‘rtasidagi madaniy almashinuv turistik oqimlarning ko‘payishiga yordam beradi.

Migratsiya va turizm zamonaviy jahon iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liq hamda strategik ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan bo’lib, ushbu sohalarning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy, madaniy va siyosiy hamkorlikning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Migratsiya mehnat resurslarining samarali taqsimlanishi, ishchi kuchi bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta’minlash, aholi daromadlarini oshirish hamda xalqaro pul o‘tkazmalari orqali milliy iqtisodiyotga qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb etishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, xorijda ta’lim olgan va mehnat faoliyatini amalga oshirgan fuqarolar tomonidan orttirilgan bilim, malaka va tajriba inson kapitalining rivojlanishiga, innovatsion g‘oyalar va zamonaviy texnologiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishiga zamin yaratadi.

Turizm esa iqtisodiyotning eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, xizmatlar eksportining kengayishi va xorijiy valyuta tushumlarining ko‘payishiga sezilarli hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, turizm transport, mehmonxona xo‘jaligi, savdo, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik va madaniy xizmatlar kabi ko‘plab tarmoqlarning rivojlanishini rag‘batlantirib, iqtisodiyotda multiplikativ ta’sirni yuzaga keltiradi. Turizm infratuzilmasining takomillashuvi esa nafaqat sayyohlar uchun, balki mahalliy aholi turmush sifatini yaxshilash uchun ham muhim omildir. Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik misolida qaralganda, turizm va migratsiya aloqalari ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Germaniyalik turistlarning O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishi mamlakatning turistik salohiyatini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga xizmat qilayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston fuqarolarining Germaniyada ta’lim olishi va mehnat faoliyatini amalga oshirishi malakali kadrlar tayyorlash hamda tajriba almashinuvi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, ikki mamlakat o‘rtasidagi migratsiya va turistik almashinuv madaniyatlararo muloqotni rivojlantirib, o‘zaro ishonch va hamkorlikni yanada kuchaytiradi.

Shunday qilib, turizm va migratsiya iqtisodiy rivojlanishning muhim omillari sifatida davlatlarning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi. Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasida ushbu sohalardagi hamkorlikni yanada kengaytirish, turistik almashinuvni rag‘batlantirish, mehnat va ta’lim migratsiyasi uchun qulay sharoitlar yaratish hamda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish ikki mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlariga mos keladi. Bu esa o‘z navbatida investitsiyaviy jozibadorlikning oshishi, inson kapitalining rivojlanishi, iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi va xalqaro hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Natijada, turizm va migratsiya sohalaridagi

samarali hamkorlik Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlovchi muhim omillardan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%93_Germaniya_munosabatlari (murojaat qilingan sana: 06.06.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi TIV materiallari, murojaat sanasi: 06.06.2026.
3. https://www.uzbekistan.de/frontend/web/site/index?language
4. International Organization for Migration. World Migration Report 2024.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development. International Migration Outlook 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
6. The State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha statistik to‘plamlar. Toshkent, 2024–2025.
7. O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarga oid rasmiy ma’lumotlar.